



CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLAHGAN VAZIYATLARDA OTALIKNI BELGILASH MASALALARI

Ma'murov Abbosbek Salohiddin o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro biznes huquqi yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Tel: +998944291200

abbosbekmamurovv@gmail.com

Annotatsiya: Bolalarning nasl - nasabi belgilash ota - ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar yuzaga kelishi va amal qilishining birlamchi va asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikda bolaning nasl - nasabini belgilashga oid qoidalar bolaning manfaatidan kelib chiqib uning muayyan ota-onadan tug'ilishi, farzandlikka olinishi yoki ota-onasini aniqlash imkoni bo'lmaganda davlat tomonidan belgilanishi kabi tartibotlarda ifodalanadi. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida otalikni belgilash masalalari, ayrim xorijiy davlatlar qonun hujjatlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi, chet el elementi bilan bog'liq bo'lgan holatlarda otalikni(onalikni) ni belgilash bilan bog'liq bo'lgan qonunchilikdagi mavjud muammolar tahlil qilinadi va bu muammolarga yechimlar taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: Minsk konvensiyasi, Oila-nikoh munosabatlari, oila huquqi, nasl-nasabni belgilash, otalikni belgilash, otalikka e'tiroz bildirish, kollizion norma.



KIRISH

Integratsiya jarayonining tobora jadallashib borayotgani, migratsiya jarayonining jadallashuviga va bu o'z navbatida turli mamlakat fuqarolari o'rtasidagi oilaviy munosabatlarning vujudga kelishi, ya'ni xorijiy harakterga ega bo'lgan oilaviy munosabatlarning keng tus olishi va ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalarini tanqidiy nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish zaruratini vujudga keltiradi. Ammo, bu boradagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar tahlili bugungi kun chaqiruvlariga mazkur normalarning tayyor emasligini ko'rsatadi. Ushbu maqolada aynan chet el elementi bilan murakkablashgan otalikni belgilash bilan bog'liq masalalarning tahlil qilinishi, aynan xorijiy harakterga ega bo'lgan ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning vujudga kelishining asoslari – otalik va onalikni belgilash hisoblanishidadir. Bu borada onalikni belgilash nisbatan amaliyotda kam muammolarni vujudga keltiruvchi kategoriya bo'lsa, otalikni belgilash masalasi murakkab bo'lib, mamlakatlar qonunchiligidagi ahamiyatli farq ushbu munosabatlarni tartibga solishda o'zida yanada kolliziyalarni yaqqol ko'rsatuvchi kategoriya hisoblanadi.

Bolaning nasl - nasabini belgilash masalasi milliy va davlatning ichki huquqiy munosabatlar doirasida katta muammolarni keltirmaydi, biroq oilaviy-huquqiy munosabatlar chet el elementi bilan murakkablashganda, mazkur yuridik fakti belgilash bir qadar muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Shu sababli bolaning nasl-nasabini belgilashda davlatlar o'rtasidagi qonuniy tartibotning turli xildaligidan kelib chiqib, xalqaro xususiy huquqda bolaning nasl nasabini belgilashda xalqaro - huquqiy hujjatlarga tayanish hamda bolaning nasl-nasabini shaxsiy qonun tamoyilidan kelib chiqib aniqlash muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 60-moddasiga ko'ra, bolaning shu onadan tug'ilganligi (onalik) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi tomonidan tibbiy muassasaning hujjatlariga ko'ra, bola tibbiy muassasada tug'ilmagan holda esa, boshqa dalillarga asosan belgilanadi.



Ayolning nikoh tuzilgandan keyin yoki erining o'limi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan so'ng uch yuz kun ichida tug'ilgan bolasi nikohda tug'ilgan bola hisoblanadi.

Agar nikoh tugaganidan keyin uch yuz kun ichida bola tug'lsa va bu davrda ayol yangi nikohga kirgan bo'lsa, bola yangi nikohda tug'ilgan hisoblanadi. Bunday hollarda sobiq er yoki uning ota-onasi bolaning nasl-nasabi xususida nizolashish huquqiga ega.¹

Bolaning nasl-nasabini belgilashda ota-onaning o'zaro roziligi bilan ixtiyoriy ravishda va onaning arizasi bilan sud tartibida otalikni belgilash amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 61- moddasiga ko'ra, Bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan shaxsning otaligi o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi.

Ona vafot etganda, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda, onaning qayerdaligini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda yoki u onalik huquqidan mahrum qilinganda, otalik vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan holda o'zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsning arizasiga binoan belgilanadi.

Bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, otalikni belgilash to'g'risidagi arizani uning nomidan vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan uning homiysi berishi mumkin.

Otalikni belgilash to'g'risidagi ariza bolaning tug'ilganligini qayd etish vaqtida, shuningdek bola tug'ilganligi qayd etilgandan keyin ham berilishi mumkin. Agar otalikni belgilash to'g'risida bola tug'ilgandan so'ng er-xotin birgalikda ariza berishining imkoni bo'lmay qolishi yoki mushkul bo'lishini ko'rsatuvchi asoslar mavjud bo'lsa, tug'ilajak bolaning

¹ O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 60-moddasi



o‘zaro nikohda bo‘lmagan ota-onasi shunday arizani ona homiladorlik vaqtida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga berishga haqli.²

Milliy qonunchilikda bolaning nasl- nasabini belgilash asoslari, otalikning sud tartibida belgilanishi va otalik (onalik) to‘g‘risida e‘tiroz bildirishga oid qonun normalari yetarlicha tartibga solingan.

O‘zaro nikohda bo‘lmagan O‘zbekiston fuqarolaridan tug‘ilgan bolalarga nisbatan otalikni belgilash va unga e‘tiroz bildirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilsa, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi va boshqa normativ - huquqiy hujjatlar qo‘llaniladi. Ammo ushbu munosabatda bir taraf chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs ishtirokidagi otalikning sud tartibida belgilanishiga oid kollizion masalalar O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida belgilanmagan. Bunday huquqiy munosabat yuzaga kelgan paytda sud yoki boshqa davlat organi oldida mazkur munosabatga shu davlatning milliy huquqini yoki chet el huquqini qo‘llanish lozimligi masalasi hal qilinadi.

MDH davlatlarining oila qonunchiligida qo‘llaniladigan huquqni tanlash bo‘yicha yechim mavjud. Masalan, Armaniston Respublikasining Oila kodeksi 147- moddasida Armaniston Respublikasi hududida otalikni belgilash Armaniston qonunlari orqali amalga oshiriladi. Qozog‘iston (276 -m.) va Tojikiston Respublikasida otalikni belgilash bolaning tug‘ilishiga ko‘ra fuqaroligi mansub bo‘lgan davlat qonuniga ko‘ra, Belarus Respublikasida (232-m.) ota - ona va bolaning fuqaroligi mansub bo‘lgan davlat qonuni yoki ular birgalikda yashayotgan mamlakat qonuni bo‘yicha, Moldova (159-m.) da esa joy qonuniga ko‘ra, Ukrainada O‘zaro nikohda bo‘lmagan O‘zbekiston va Belarus fuqarosi o‘rtasida bolaning tug‘ilishi va unga nisbatan sud tartibida otalikni belgilash Belarus hududida amalga oshirilsa, Belarus

² O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 61-moddasi



Respublikasining Oila kodeksi 232- moddasiga ko'ra, ota-ona va bolaning fuqaroligi mansub bo'lgan davlat qonuni yoki ular birgalikda yashayotgan mamlakat qonuni bo'yicha belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida esa ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi normaning yo'qligi 234- modda asosida va ikki davlat o'rtasidagi shartnomalarga murojaat qilishni ko'rsatadi. Ammo 234 - modda chet el elementi bilan murakkablashgan otalikni belgilash to'g'risidagi masalaning so'nggi yechimi hisoblanmaydi. Chunki 234- moddada otalikni belgilashda qo'llaniladigan kollizion bog'lovchilar belgilanmagan. Natijada O'zbekiston Respublikasida chet el elementi bilan murakkablashgan oilaviy-huquqiy munosabatlarda bolaning nasl-nasabi xususida nizolashish huquqida ikki tomonlama shartnoma normalari ustun mavqega ega hisoblanadi.

Chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarda otalik (onalik)ni belgilash va unga e'tiroz bildirish tartibi Minsk konvensiyasining 31-moddasida, Qirg'iziston Respublikasi Oila kodeksining 169 - moddasida, Moldova Respublikasi Oila kodeksining 159-moddasida, Rossiya Federatsiyasi Oila kodeksining 162- moddasida, Italiyada "Italiyaning xalqaro xususiy huquq islohoti to'g'risida"gi Qonuni 33-moddasida, Ukraina "Xalqaro xususiy huquq to'g'risida" gi qonunining 65-moddasida, Bolgariya Respublikasi "Xalqaro xususiy huquq to'g'risida"gi kodeksining 83-moddasi 1-qismida keltirilgan bo'lib, otalikni belgilash va unga e'tiroz bildirish bola tug'ilishiga ko'ra fuqaroligi mansub bo'lgan mamlakat qonuni amalga oshirilishi belgilangan. Otalikni belgilashda qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq to'g'risidagi masalalar huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalarda ham belgilangan. Ikki tomonlama shartnomalarning aksariyatida otalikni belgilash bola tug'ilishiga ko'ra fuqaroligi mansub bo'lgan mamlakat qonuni bo'yicha belgilanishi nazarda tutilgan. Masalan, 1997-yil 28-martda imzolangan Bayonnoma bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi Minsk konvensiyasida ushbu masala bo'yicha otalikni yoki onalikni belgilash va unga e'tiroz bildirish bola tug'ilishiga ko'ra fuqaroligi mansub bo'lgan Ahdlashuvchi davlat qonuni bilan belgilanishi nazarda tutilgan. Ikki tomonlama huquqiy yordam berish



to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Litva (28-m.), Ozarbayjon (26-m.), Qozog'iston (3-m.), Ukraina (31-m.), Qirg'iziston (30-m.), Latviya (28-m.), Turkmaniston (31- m.) bilan tuzilgan shartnomalarida va Minsk konvensiyasida otalikni yoki onalikni belgilash va unga e'tiroz bildirish bola tug'ilishiga ko'ra fuqaroligi mansub bo'lgan Ahdlashuvchi davlat qonuni bilan belgilanishi ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston va Chexiya Respublikalari o'rtasidagi huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi 2002-yil 18- yanvardagi ikki taraflama shartnomaning 31-moddasiga binoan, otalikni yoki onalikni belgilash va unga e'tiroz bildirish bola tug'ilishiga ko'ra fuqaroligi mansub bo'lgan Ahdlashuvchi davlat qonuni bilan, agar bola fuqaroligi noma'lum bo'lsa, bola yashayotgan joy qonuni bilan, qonuniy nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan bola hamda uning otasi va onasi o'rtasidagi huquqiy munosabatlar bola qaysi ahdlashayotgan taraf fuqarosi bo'lsa, shu ahdlashayotgan tarafning qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yuqoridagi keltirilgan tahlillarga ko'ra, hozirgi kunda chet elementi bilan murakkablashgan munosabatlarni tartibga soluvchi milliy qonunchiligimiz va ayrim xorijiy davlatlar qonun hujjatlarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish natijasida oila qonunchiligini yanada takomillashtirishga qaratilgan fikr-mulohazalarga asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqarish dolzarb masalalardan biridir. Shuning uchun ham biz Oila kodeksining VIII bo'limi "Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi munosabatlarni tartibga solish" ga otalik (onalik)ni belgilash va unga e'tiroz bildirish to'g'risidagi yangi moddani kiritish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaymiz. Taklif etilayotgan ushbu moddada eng avvalo , otalikni belgilash tartibi bo'yicha qaysi mamlakat qonunini qo'llash mumkinligi aniq ko'rsatish kerak. Bunda, bola tug'ilgan vaqtda uning nasl-nasabini belgilash onaning fuqaroligi mansub bo'lgan mamlakat qonunchiligi bo'yicha, agar ota - onaning fuqaroligi mansub bo'lgan mamlakat qonuni otalik (onalik) ni to'g'ridan-to'g'ri belgilashga yo'l qo'ymasa, bola tug'ilgan vaqtdagi ota-onaning birgalikda yashayotgan mamlakat qonuniga ko'ra yoki murojaat qilinayotgan mamlakat qonuniga muvofiq amalga oshirilishi kerak.



Otalikning sud tartibida belgilanishi va otalik (onalik) ka e'tiroz bildirish bola tug'ilishiga ko'ra fuqaroligi mansub bo'lgan mamlakat qonuni bilan belgilanishi kerak. Agar bolaning fuqaroligi o'zgarsa, bola uchun qulay bo'lgan mamlakat qonuni qo'llash taklif etiladi.

XULOSA

Yuqoridagi maqolada chet el elementi bilan murakkablashgan vaziyatlarda otalikni(onalik) belgilash, otalikka e'tiroz bildirish va otalikni sud tartibida belgilash masalalari tahlil qilindi.

Chet el elementi bilan murakkablashgan vaziyatlarda otalikni(onalik) belgilash va unga e'tiroz bildirishda qo'llaniladigan birxillashtirilgan kollizion normalarning tasnifiga ko'ra: bolaning tug'ilishiga ko'ra fuqaroligi mansub bo'lgan mamlakat qonuni; ona xomiladorlik davridagi shaxsiy qonuniga; tomonlarning xohishiga ko'ra belgilanadi.

Chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarda bolaning nasl- nasabini belgilashda ishtirok etadigan kollizion bog'lovchilarni quyidagicha uch turkumga ajratish lozim,- degan xulosaga kelindi. Bolaning shaxsiy qonuniga ko'ra;

“lex begnitatis” - eng yaxshi qulaylik tug'dirish to'g'risidagi huquqni tanlashiga ko'ra; ota - onaning shaxsiy qonuniga ko'ra, sud joylashgan mamlakat qonuniga ko'ra – “lex fori” farqlanadi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida chet el elementi bilan murakkablashgan oilaviy munosabatlarda otalikni belgilash tartibining mavjud emasligi kabi qonunchilikdagi muammolar o'rganildi hamda ushbu muammaolarni hal qilish uchun Chet el elementi bilan murakkablashgan otalikni belgilash munosabatlarini tartibga solishda hududiylikka asoslangan normalarni inkor etib, bola fuqaroligi mansub bo'lgan mamlakat qonunini inobatga oluvchi normalar bilan to'ldirish, Oila kodeksida chet el elementi bilan



murakkablashgan vaziyatlarda otalikni belgilash tartibi bo'yicha qaysi mamlakat qonunini tanlash mumkinligi aniq ko'rsatish kerakligi kabi yechimlar taklif qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 01.09.1998
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2001 yil 1 iyundagi qarorlari. -T., 2001, 30-38 b.
4. Xalqaro xususiy huquq. Darslik. Mualliflar jamoasi. T., TDY, 2019, 354 b.
5. Oila huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi, T., 2005, 185 b.
6. Oila huquqi: darslik/F.M. Otaxo'jayev, Sh.R. Yuldasheva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Cholpon nomidagi NMIU. 2013, 208 b.
7. Raxmonqulova N.X-A. Xalqaro xususiy huquqda nikoh munosabatlari. Monografiya. – T.: Artflex. 2011 y.
8. Raxmonqulova N. Xalqaro xususiy huquqda nikohdan ajratishga doir munosabatlarni tartibga solinishi: o'quv qo'llanma. – T., 2012.
9. Raxmonqulova N. Xalqaro xususiy huquqda nikoh tuzish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solinishi: o'quv qo'llanma. – T., 2012.
10. Abduraxmonova X.B. Xalqaro xususiy huquqda ota-ona va farzand munosabatlarning tartibga solinishi. O'quv Qo'llanma. –T.: "TOP IMAGE MEDIA" – 2012.
11. Abduraxmonova X.B. Ota-ona va bolalar aliment huquqlari va majburiyatlarining kollizion tartibga solinishi. Risola. –T.: "TOP IMAGE MEDIA" – 2015.
12. Abduraxmonova X.B. Xalqaro xususiy huquqda ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning tartibga solinishi Monografiya. – T.: Art flex. 2016 y.
13. Lex.uz